2.3. Qayta qurish uchun saralash bekatini turini (bir yoki ikki tomonli) qayta ishlash qobiliyati asosida tanlash.

2.4. Bekat turini tanlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan talablar tahlili.

2.5. Saralash bekatining qayta qurish chizmasini tanlash.

3 bob. Saralash bekatining qayta qurish chizmasini texnik-iqtisodiy asoslash.

4 bob. Saralash bekatining zaruriy yo'l tarmoqlari va inshootlarini hisoblash.

4.1. Saralash bekatida mavjud yo'l tarmoqlarining tahlili.

4.2. Yo'lovchi poyezdlari uchun harakat yo'llarini hisoblash.

4.3. Yuk poyezdlarining harakat yo'llarini hisoblash.

4.3.1. Qabul qilish parki yo'llarini hisoblash.

4.3.2. Jo'natish parki yo'llarini hisoblash.

4.3.3. Tranzit poyezdlar uchun qabul qilish-jo'natish parki yo'llarini hisoblash.

4.3.4. Saralash parki yo'llarini hisoblash.

4.4. Saralash bekatining yo'l tarmoqli chizmasini ko'p bosqichli rivojlantirish uchun tanlash.

5 bob. Saralash tepaligini loyihalash.

6 bob. Lokomotiv va vagon xo‘jaligini loyihalash.

6.1. Lokomotiv xo‘jaligi inshootlarini hisoblash va loyihalash.

6.2. Vagon xo‘jaligi inshootlarini hisoblash va loyihalash.

6.3. Yuk xo‘jaligi inshootlarini hisoblash va loyihalash.

6.4. Saralash bekatida sanoat korxonalari shaxobcha yo‘llarining ulanishi.

7 bob. Saralash bekatini ishi texnologik jarayonining bayoni va bekatda harakat xavfsizligi ta’minoti.

8. Saralash bekatida atrof-muhit muhofazasi va ekologik yechimlar bayoni.

9. Saralash bekatining poyezd o‘tkazish qobiliyati va qayta ishlash qobiliyatini oshirish chora-tadbirlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

3.4. “Uchastka bekatini qayta qurish loyihasi” mavzusida BMI mundarijasi

Kirish

1 bob. BMI uchun topshiriq tahlili.

1.1. Berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish.

1.2. Uchastka bekatini qayta qurish vazifalarini tahlil qilib, BMI ni bajarish tartibini belgilash.

1.3. Bekatda muomalada bo‘lgan yuk poyezdlar uzunligi va tarkibini aniqlash.

1.4. Bekatda yuk poyezdlarni qabul qilish va jo‘natish yo‘llarining uzunligini tanlash.

1.5. Bo‘sh va aralash vagonli yuk poyezdi tarkibini aniqlash.

1.6. Bekatda vagonlar va poyezdlar aylanmasi (harakati) miqdorlarini hisoblash.

1.6.1. Bekatda yo‘lovchi poyezdlar harakati jadvalini tuzish.

1.6.2. Bekatda yuk poyezdlar harakati jadvalini tuzish.

1.7. Bekatga (uzelga) tutashuvchi yo‘nalishlarda bosh yo‘llar sonini aniqlash.

1.8. Bekatga (uzelga) tutashuvchi yo‘nalishlar tomonliligini tanlash.

1.9. Bekatda (uzelda) poyezdlar aylanmasi grafigini tuzish.

2-bob. Qayta qurish uchun uchastka bekat turini tanlash (texnik-iqtisodiy asoslash).

2.1. Tanlash uchun uchastka bekatini parklar bilan ko‘rsatilgan qayta qurish chizma variantlarini (2-3-chizma tavsiya etiladi) tayyorlash.

2.2. Bekatni qayta qurish chizma variantlarini texnologik afzalliklari va qurilish xususiyatlari bo'yicha asoslab tanlash.

3 bob. Uchastka bekatining qayta qurish chizmasini texnik-iqtisodiy asoslab tanlash.

4 bob. Qayta qurish uchun uchastka bekatining zaruriy yo'l tarmoqlari va asosiy inshootlarini hisoblash.

4.1. Yo'lovchi poyezdari uchun harakat yo'llarini hisoblash.

4.2. Yuk poyezdlari uchun harakat yo'llarini hisoblash.

4.2.1. Qabul qilish-jo'natish parki yo'llarini hisoblash.

4.2.2. Saralash parki yo'llarini hisoblash.

4.2.3. Bekatda manyovr harakat va tortish yo'llarini hisoblash.

4.3. Uchastka bekatining yo'l tarmoqli chizmasini ko'p bosqichli rivojlantirish hamda shaharsozlik va ekologik talablar asosida tanlash.

5 bob. Uchastka bekatida saralash inshootlarini loyihalash.

6 bob. Lokomotiv va vagon xo'jaligini loyihalash.

6.1. Lokomotiv xo'jaligi inshootlarini hisoblash va loyihalash.

6.2. Vagon xo'jaligi inshootlarini hisoblash va loyihalash.

6.3. Yuk xo'jaligi inshootlarini hisoblash va loyihalash.

6.4. Uchastka bekatida sanoat korxonalarining yangi shaxobcha yo'llarining ulanishi.

7 bob. Uchastka bekat ishining texnologik jarayoni bayoni va harakat xavfsizligi ta'minoti.

8. Uchastka bekatda atrof-muhit muhofazasi va ekologik yechimlar bayoni.

9. Uchastka bekatining poyezd o'tkazish va qayta ishlash qobiliyatini oshirish chora-tadbirlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

4. Tushuntirish xatini rasmiylashtirish tartib-qoidalar

4.1. Umumiy qoidalar

Bitiruv malakaviy ishiga tushuntirish xati qo'lda, A4 formatli (210x297 mm) oq qog'oz varag'ining bir tomonida yoziladi. Xarflar va raqamlar aniq, faqat bir xil (ko'k, qora yoki binafsha) rangda, siyoh, pasta yoki tush bilan yozilishi kerak.

Qog'oz chetlarida, matn atrofidan quyidagi ikki xil ko'rinishda hoshiya qoldirilishi mumkin:

1. Chiziqli ramka bilan belgilangan hoshiya. Bunday hoshiya qo‘llanganda ramka A4 format qog‘ozining chap tomonidan 20 mm, boshqa tomonlaridan 5 mm joy qoldirib chiziladi (1-rasm).

2. Chiziqsiz oddiy oq hoshiya. Bunday hoshiya A4 format qog‘ozining chetlarida, matn atrofidan quyidagi kenglikda qoldiriladi: chap tomondan (tikish uchun) – 30 mm, o‘ngdan – 10 mm, tepadan – 15 mm, pastdan – 20 mm (2-rasm).


Matn ramka ichida, hoshiya chizig‘idan xat boshida kamida 5 mm, oxirida 3 mm, yuqoridan va pastdan 10 mm tashlab yoziladi. Matn abzatslari besh xarfga loyiq joy qoldirib boshlanadi. Tushuntirish xati varag‘ining g‘ijimlanishiga, noaniq yozuv va ifloslanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Taqrizchining tanbeh va fikrlari BMI ning tushuntirish xatida yozma ravishda ko‘rsatilgan bo‘lsa, unga o‘zgartirish va tuzatishlar avvalgi varaqning orqa tomoniga **“Tuzatish va o‘zgartirishlar”** belgisi ostida yoziladi. Taqrizchining belgilariga tegilmaydi.


4.2. Tushuntirish xatining tarkibi

BMI ning tushuntirish xati quyidagilardan tarkib topishi kerak:

- BMI ning (loyi haning) titul varag‘i;
- BMI ni bajarish uchun topshiriq;
- tushuntirish xatining mundarijasi;
- kirish;
- asosiy matn;
- umumiy xulosalar;
- qo‘llanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilovalar.



1-rasm. Chiziqli ramkali hoshiya



2-rasm. Chziqsiz oddiy hoshiya

Bitiruv malakaviy ishining (kurs loyihasining) tushuntirish xati bir qismdan tashkil topib, titul varag'idan boshlanadi. Tushuntirish xati titul varag'idan boshlab ketma-ket raqamlanadi, ammo titul varag'ida raqam ko'rsatilmaydi. Matn hujjatining hajmi juda katta bo'lganda, uni alohida qismlarga bo'lish mumkin. Bu holda titul varag'i har bir qism uchun alohida raqamlanadi. BMI tushuntirish xatining matni boblar, bo'limlar va bandlarga ajratib yozilishi kerak.

Har bir bob ichida bo'limlar bo'lishi mumkin. Ular tegishlicha bob va bo'lim raqamiga ega bo'ladi. Masalan, 3.4 (3-bob, 4-bo'limni anglatadi).

Bob va bo'limlar bir yoki bir necha bandlardan iborat bo'lsa, u holda quyidagicha raqamlanadi. Masalan, 3.4.2 (3-bob, 4-bo'lim, 2-bandni anglatadi).

Agar matn faqat bandlardan iborat bo'lsa, u holda boshdan oxirigacha tartib bilan bir tekis raqamlanadi.

Matn bo'limlari yoki bandlarida sanab o'tilishi lozim bo'lgan talablar, ko'rsatmalar va holatlar arab raqamlari va qavs bilan tartibli belgilanadi. Masalan, 1), 2), 3) va shu kabilar. Bunda qavsdan keyingi so'z kichik xarf bilan boshlanadi. Masalan, 1) yo'l tarmoqlari... kabi.

Xatning har bir bobini yangi varaqdan yozish tavsiya etiladi.

Har bir bo'lim va bandlar yangi abzatsdan boshlanadi.

Bob va bo'limlar nomi qisqa va aniq bo'lib, matnga simmetrik ravishda bosh harflar bilan yoziladi. Bandlar nomi abzatsdan, sarlavha shaklida (birinchisi bosh harf, qolganlari oddiy, mayda harflar bilan) yoziladi.

Sarlavhada so'zni bo'lib o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Agar sarlavha ikki gapdan iborat bo'lsa, faqat birinchi gap oxirida nuqta qo'yiladi.

Sarlavhadan keyingi matn orasida (bosma usul yoki kompyuterda terilganda) 3-4 interval oraliq qoldiriladi. Xat qo'lda yozilgan bo'lsa, sarlavha va keyingi matn orasida taxminan 15 mm joy tashlanadi.

4.3. Tushuntirish xatining matnini rasmiylashtirish

Tushuntirish xatining titul varag'i mazkur oliy o'quv yurti uchun belgilangan, tasdiqlangan va bosmaxona orqali chop etilgan na'munaviy nushada rasmiylashtiriladi. Loyihani bajarish uchun topshiriq na'munaviy bosma qog'ozda rahbar tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirib beriladi va tushuntirish xatiga tikib qo'yiladi.

Titul varag'idagi barcha yozuvlar chizma shriftlarda yoziladi.

Loyiha tarkibi mundarija, tushuntirish xati va unga kiritilgan barcha materiallar, chizmalar nomi va tartib raqamlarini o'z ichiga oladi.

Tushuntirish xatining mundarijasida barcha boblar, bo‘limlar va bandlar nomi, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar varaq betlari bilan ko‘rsatiladi.

Betlar boshidan oxirigacha ketma-ket raqamlanadi. Titul varag‘i birinchi bet hisoblanadi, ammo unda raqam ko‘rsatilmaydi.

Tushuntirish xati tarkibiga kiritilgan rasmlar, jadvallar, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar umumiy raqamlash tarkibiga kiritiladi. Betlar arab raqamlarida matnning ostki qismida o‘rtada yoki o‘ng tomon hoshiya chiziq burchagida qo‘yilishi mumkin.

Tushuntirish xatining asosiy matni qisqa va aniq yozilishi kerak. Tushuntirish xatini yakka shaxs tomonidan yozish tavsiya etilmaydi. Odatda u noaniq (“topiladi...” hisoblanadi..) yoki uchinchi shaxs nomidan (“formula bilan hisoblaydilar..”) kabi yoziladi. Xulosalarni yozishda aniqlik ishlatish mumkin.

Tushuntirish xatini yozishda ilmiy-texnik atamalarni to‘g‘ri qo‘llashga e‘tibor qilish kerak. Noaniq texnik atamalar va oddiy muomalada qo‘llaniladigan iboralarni ishlatishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Masalan: elektrovozli tortish o‘rniga (elektrli tortish), vagon strelkada turib qoldi o‘rniga (vagon strelkada to‘xtab qoldi), poyezdni tepalikka surish o‘rniga (tarkibni tepalikka surish), tarkibni tashlash o‘rniga (tarkibni tarqatish) va shu kabi yozish kerak.

Matnni yozishda quyidagilar taqiqlanadi: so‘zlarni qisqartirish (davlat standartlari va orfografiya qoidalari bilan belgilangan qisqartma so‘zlar bundan mustasno); manfiy raqamlar oldidan (–) matematik belgi qo‘yish (bu holda belgi o‘rnida “minus” so‘zi yoziladi); raqam qo‘ymay $\leq$ (kichik yoki teng), $\geq$ (katta yoki teng), $\neq$ (teng emas), № yoki % belgilarni qo‘llash; standartlar, texnik shartlar va meyorlar (QMQ, GOST, SNiP, TU) kabi standart indekslarga belgi (ro‘yxat) raqamsiz dalolat ko‘rsatish.

Formulalarda belgilar sifatida faqat davlat standartlari bilan belgilangan (simvol) ishoralardan foydalanish mumkin. Ishoralarning ma’nosi yangi qatordan boshlab berilishi kerak.

Agar matnda formulalar ko‘p bo‘lsa, ular bo‘lim ichida tartib bilan arabcha raqamlanadi. Raqam formulaning ichida o‘ng tomonda, matn qatorining chetida yoziladi.

Masalan,

$$l_x = \frac{e}{\sin \alpha} \quad (2.1)$$

Bu yerda: 2 – bo‘limning tartib raqami:

1 – ushbu bo‘limda formulaning tartib raqami.

Formulalar tushuntirish xatining boshidan oxirigacha ketma-ket raqamlanishi ham mumkin.

Matnda davlat standartlariga, texnik qoidalarga dalolat qilish mumkin. Bo‘linmalar, bandlar, jadvallar va rasmlarga dalolat qilinmaydi.

Tushuntirish xatining matniga o‘quv adabiyotlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, na‘munaviy loyihalar, texnologik jarayonlar, texnik-boshqaruv dalolatnoma kabi hujjatlardan aynan ko‘chirma qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Chop etilgan uslubiyatlar, alohida formulalar, meyoriy materiallardan foydalanishda adabiy manbaga dalolat qilib ko‘rsatish kerak (kvadrat qovus ichida). Standartlarga dalolat qilishda uning nomini yozmay faqat belgisini ko‘rsatishga ruxsat etiladi.

4.4. Rasmlar va ilovalarni rasmiylashtirish

Rasmlar (chizmalar, grafiklar, diagrammalar va sh.k.) matn ichida yoki oxirida joylashtirilishi hamda alohida ilovalarda berilishi mumkin.

Rasmlar umumiy tartibda yoki har bir bo‘lim ichida tartib bilan alohida raqamlanishi mumkin.

Masalan, “2.3-rasm”da 2 – bo‘lim raqamini, 3 – rasmning tartib raqamini ifodalaydi. Ilgarigi rasmlarga ilova “q. 2.3-rasm” ko‘rinishida berilib, “2.3-rasmga qaralsin” ma‘nosini anglatadi. Rasm raqami, nomi va tushuntirish matni rasm ostida beriladi.

Rasmlar, jadvallar va boshqa qo‘shimcha matnlar tushuntirish xatining oxirida, ilova shaklida berilishi mumkin. Har bir ilova yangi betdan boshlanadi va qog‘ozning o‘ng tomon yuqori burchagida, 1-ilova, 2-ilova kabi belgilanadi.

4.5. Jadvallarni tuzish

Raqamli materiallar jadval shaklida rasmiylashtiriladi. Jadval boshlanishini diagonal chiziq bilan ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi. Jadval qatorlarining balandligi 8 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

Jadvalning o‘ng tomon yuqori burchagida “Jadval....” so‘zi va raqami yoziladi, masalan, “2.1-jadval”. Uning ostida jadval sarlavhasi bosh kelishikda birlikda yoziladi. Jadval yon va ostki tomonidan chiziq bilan berkitilmay ochiq qoldirilishi mumkin.

Agar jadval to‘ri format qog‘ozidan katta bo‘lib, keyingi betga o‘tkazilsa, u holda yangi betning tepasida jadvalning bosh qismi takrorlanadi yoki birinchi bosh qism ostida barcha ustunlar tartib bo‘yicha raqamli belgilanib, keyingi betlar ushbu tartib raqamlar bilan boshlanishi mumkin.

Barcha jadvallar umumiy tartibda yoki har bir bo‘lim ichida tartib bilan arabcha raqamlanishi mumkin. Jadval raqami uning o‘ng tomoni tepa qismida “2.3-jadval” shaklida belgilanib, 2 – bo‘lim raqamini, 3 – jadvalning tartib raqamini anglatadi. Agar jadvalning nomi berilgan bo‘lsa, “2.3-jadval” beligisi undan oldingi qatorda, o‘ng burchakda qo‘yiladi. Matnda faqat yagona jadval bo‘lsa, u raqamlanmaydi va jadval so‘zi ham yozilmaydi. Matnda barcha jadvallarga dalolat bo‘lishi kerak, masalan, “2.3-jadvalda...”. Agar hujjatda yagona jadval bo‘lsa, u raqamlanmaydi va “Jadval” so‘zi yozilmaydi.

4.6. Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish

Ro‘yxatda barcha foydalanilgan adabiyotlar keltiriladi. Adabiyotlar ro‘yxatini quyidagi tartibda tuzib yozish tavsiya etiladi.

Dastlab davlat miqyosidagi dasturul amal asarlar, undan so‘ng ixtisoslik bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar muallif yoki tahrirchi (mualliflar ko‘p bo‘lib, bir kishi tahrirligida yozilgan adabiyotlar uchun) familiyasi bo‘yicha alfavit tartibida keltiriladi. Ro‘yxat oxirida oynoma va ro‘znomalar nomi keltirilishi mumkin.

Adabiyotlar nomi belgilangan tartibda va bexato yozilishi kerak. Masalan,

7. A.SH. SHorustamov, R.YA. Abdullaev. Temir yo‘llar umumiy kursi. T., “Ilm Ziyo”, 2012, 288 bet.

Bunda T. – Toshkent, kitob chop etilgan shahar nomini, “Ilm Ziyo” – nashriyot nomini, 2012 – kitob chop etilgan yilni anglatadi.

5. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda davlat standartlari talablariga amal qilish

5.1. Chizmalarni rasmiylashtirish

Umumiy holatlar

Bitiruv malakaviy ishlari va bosqich loyiha ishlarining chizmalari davlat standartlarining GOST 21.108-78 QLHRS (СПДС) “Qurilish uchun loyihalash hujjatlarini rasmiylashtirish standartlari” (СПДС – стандарты правил оформления проектной документации для строительства) hamda GOST 2.001-70 “Konstruktorlik hujjatlashtiruvining yagona tizimi” (ESKD – единая система конструкторской документации) talablariga rioya qilgan holda bajarilishi kerak.

Bekatlarda va uzellarning yoʻl tarmoqlarini masshtabli rejalashda (planini tuzishda), yoʻllarning boʻylama va koʻndalang kesimlarini chizishda “Qurilish meʼyorlari va qoidalar” (Строительные нормы и правила (СНиП II-39-76) – “1520 mm li temir yoʻllarni loyihalash meʼyorlari”, “Temir yoʻllarda bekatlar va uzellarni loyihalash uchun yoʻriqnomalar (ИПСУ – инструкция по проектированию станции и узлов на железных дорогах) kabi meʼyoriy hujjatlarga rioya qilish talab etiladi.

Bekatlarning chizmalarini eni 297 mm (yoki 594 mm) oq qogʻozda, 210 mm ga karrali boʻlinadigan zaruriy uzunlikda rasmiylashtirish talab etiladi. Bekat chizmasi uchun qogʻoz uzunligi bekatning yoʻl tarmoqlari va tutashuvchi peregonlarning zaruriy bir qismi sigʻadigan qilib olinadi.

Chizma qogʻozining hoshiya chiziqlari chapdan, qogʻoz chetidan 20 mm va boshqa tomonlaridan 5 mm qoldirib chiziladi. Bekatlarni quyidagi masshtabda chizish talab etiladi.

Chizma tasvir nomi	Tasvir masshtabi	
	Asosiy	Ruxsat etiladigan
Bekat, razʼyezd va oʻzib oʻtish punkti yoʻl tarmoqlarining rejasi	1:1000	1:2000; 1:500
Tarmoqlanmagan temir yoʻllar rejasi (peregonda va shaxobcha temir yoʻllarda)	1:2000	1:5000; 1:1000
Temir yoʻllarning boʻylama profili:		
gorizontal boʻyicha	1:10000	1:5000; 1:2000
vertikal boʻyicha	1:200	1:500
Temir yoʻl yer polotnosining koʻndalang kesimlari	1:200	1:100

Temir yoʻl uzellarining loyiha rejalarini 1:10000 va 1:25000 masshtabda bajarish tavsiya etiladi.

Bajarish qulayligi uchun oliy oʻquv yurtlari talabalarining BMI va bosqich loyiha ishlarida bekat yoʻl tarmoqlarining rejasini 1:2000 masshtabda rejalab chizishga ruxsat etiladi. Chizmada tasvirlarning oʻlchamlari butun sonlarda yoki bir santimetrgacha aniqlik bilan yozib koʻrsatiladi.

Balandlik va sath belgilar metrda, verguldan keyin ikki raqam aniqlik bilan, reper belgilari esa uch raqam aniqlik bilan koʻrsatiladi.

Burchak qiymatlari graduslarda, bir minutgacha aniqlik bilan, zarur hollarda esa bir sekundgacha aniqlik bilan koʻrsatiladi.

Chizmalarda nishablik 3/700 koʻrinishida belgilab koʻrsatiladi. Belgida chiziq nishablik yoʻnalishini (tomonliligini), 3 raqami 3% lik nishablik qiymatini, yaʼni har 1000 metrga 3 m qiyalik oʻzgarishini (koʻtarilish yoki pasayishini), 700 raqami esa nishablikning uzunligini metrda ifodalaydi.

Yer polotnosi yonbagʻining tikligi (крутизна откосов) 1:1,5 yoki 1:2 kabi yozib koʻrsatiladi. Uning maʼnosi bir oʻlcham balandlikka 1,5 yoki 2 oʻlcham asosining kengligi toʻgʻri kelishini ifodalaydi.

5.2. Bekat yo‘l tarmoqlarining rejasi va bo‘ylama profilini chizish

Temir yo‘l tarmoqlarining rejasi GOST 21.510-83 talablari asosida chizib rasmiylashtiriladi. 3-rasmning yuqori qismida toq yo‘nalish uchun bekat yo‘llari va strelkali bo‘g‘zining rejasi ko‘rsatilgan.

Bekat, raz‘yezd va o‘zib o‘tish punktlarini chizishda rejada quyidagilar ko‘rsatiladi:

- joyning holati va relyefi;
- bekat yo‘llari (o‘q chiziqlarda) va ularning raqamlanishi;
- bosh yo‘l o‘q chizig‘i bo‘ylab piketlar (yuzlik) va kilometr ko‘rsatkichlari;
- burilishlarning burchak cho‘qqilari va ularning raqamlari, tangens belgilari;
- strelkali o‘tkazgichlarning raqamlari va markasi (bekatlarda asosan ko‘p qo‘llaniladigan 1/9 marka belgisini ko‘rsatmaslik mumkin);
- yo‘l oraliq masofalari;
- yo‘llarning foydalaniladigan uzunligi;
- loyihalanayotgan yo‘lning asosiy elementlari orasidagi hisobiy masofalar (masalan, strelkali o‘tkazgich markazidan burilish tangensigacha va sh.k.);
- binolar va inshootlar, sun‘iy inshootlar;
- nishablik ko‘rsatkichlari;
- temir yo‘ldan o‘tish joylari (pereyezdlar) va kesishuvlar;
- yer polotnosi (ko‘tarmasi) elementlari – yonbag‘irlar, kyuvet ariqchalari;
- signallar va chegara qoziqchalari;
- yer ajratma maydoni chegaralari;
- shimol yo‘nalishini ko‘rsatuvchi strelkali belgi (chizmaning yuqorigi chap burchagida).


Bekat elementlarining koordinatlarini hisoblashda koordinat boshi sifatida odatda yo‘lovchi binosi (yoki bekatning bosh yo‘liga perpendikulyar qurilgan birorta boshqa doimiy binoning) o‘q chizig‘i olinadi. Bazis chizig‘i sifatida bosh yo‘l o‘qi, bekatni qayta qurishda esa bosh yo‘l o‘qi yoki boshqa unga parallel bazis chizig‘i olinadi.

Bekat rejasining ostki (ayrim hollarda ustki) qismida jadval to‘ri chiziladi (3-rasm).

Zarur hollarda “Yo‘lovchi binosi o‘qigacha masofa” o‘rnida hisoblana-yotgan nuqtaning piket qiymatini ko‘rsatishga ruxsat etiladi. Bunda jadval to‘rida “Bino o‘qigacha masofa” o‘rnida “Piket qiymati” deb yoziladi.

Koordinata o'lchamlari

Nuqta nomi	SO'M 1	Signal	SO'M 3	SO'M 5	SO'M 11	SO'M 7	SO'M 9	SO'M 13	SO'M 15
Yo'lovchi binosi o'qigacha masofa	848.12	1209.82	889.82	849.19	802.20	790.89	756.51	725.91	672.00
Bosh yo'l o'qigacha masofa	5.3	-2.65	0.00	0.00	0.00	5.3	5.3	-7.5	-12.8



3-rasm. Bekat yo'llari va strelkali bo'g'zining plani (yuqorida) va bo'ylama profili (pastda)

Bekatni qayta qurishda (rekonsruksiya qilishda) masofalar bazis chizig'idan ko'rsatiladi va bu holda jadval to'rida "Bosh yo'l o'qigacha masofa" o'rnida "Bazisgacha masofa" deb yozish kerak bo'ladi.

Temir yo'lning bo'ylama profili GOST 21.510-83 talablari asosida chizib rasmiylashtiriladi. 3-rasmning pastki qismida toq yo'nalish uchun

rejadagi bekat yo'llari va strelkali bo'g'zining bo'ylama profili ko'rsatilgan.

Bekati rejasining chizma varag'ida quyidagi ma'lumotlar beriladi:

- bekat yo'llarining ro'yxati (1-shakl);
- strelkali o'tkazgichlarning ro'yxati (2-shakl);
- loyihalananayotgan bino va inshootlar ro'yxati (3-shakl).

1-shakl

Bekati yo'llarining ro'yxati

Yo'l raqami	Yo'l nomi	Yo'lining chegarasi			Yo'lining uzunligi, <i>m</i>		Rel's turi
		Strelka dan	Srelka orqali	Strelkagacha (to'siqqacha)	To'liq	Foydalaniladigan	

2-shakl

Strelkali o'tkazgichlar ro'yxati

Rel's turi	Strelkali o'tkazgich tomonliligi			Kresto- vina markasi	Strelkali o'tkazgich turi	Strelkali o'tkazgichlar raqami	Strelkali o'tkazgichlar soni
	O'ng tomonli	CHap tomonli	Sim- metrik				


3-shakl

Bino va inshootlar ro'yxati

Plandagi tartib raqami	Bino va inshootlar nomi	Inshootlar soni	Na'munaviy loyiha raqami	Eslatma

5.3. Bekati yo'l tarmoqlari yer polotnosining ko'ndalang kesimlarini chizish

Bekati yo'llarida yer polotnosining ko'ndalang kesimlari GOST 25.510-83 talablari asosida 4-rasmda ko'rsatilgandek chizib rasmiylashtiriladi. Bekati yo'llari yer polotnosining ko'ndalang kesimi ostida belgilangan tartibda jadval to'ri chiziladi



4-rasm. Bekat yo‘llari yer polotnosining ko‘ndalang kesim ko‘rinishlari

5.4. BMI chizmalarida asosiy yozuvlar va shartli belgilar

BMI va loyiha ishlari chizmalaridagi asosiy yozuvlar “Qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish qoidalari” (GOST 21.108-78) hamda “Konstruktorlik hujjatlarini ramiylashtirishning yagona tizimi” (GOST 2.001-70) talablariga rioya qilgan holda bajarilishi kerak. Ammo, ushbu hujjatlarda oliy o‘quv yurtlarida bajariladigan ishlarning, ayniqsa temir yo‘l bekatlari chizmalarining xususiyatlari hisobga olinmagan.

Temir yo‘l bekatlari chizmalarini 5-rasmda ko‘rsatilgandek jadval shaklida rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Jadval kataklarida quyidagi yozuvlar ko‘rsatiladi:

1-katak. Chizma belgi (fakultetning qisqa nomi, bosqich va guruh raqamlari. Masalan, TG-IV-250);

2-katak. Loyiha nomi (masalan, “Saralash bekati loyihasi”);

3-katak” Qog‘ozdagi chizma nomi (masalan, “Bekat yo‘l tarmoqlarining rejasi”);

4-katak. Loyihaning shartli belgisi (masalan, BMI – bitiruv malakaviy ishi);

5-katak. Chizmaning tartib raqami;

6-katak. Chizma qog‘ozlarning umumiy soni;

7-katak. Masshtabi;

8-katak. Loyihani bajaruvchi tashkilotning nomi (masalan, ToshTYMI, “TL va S” kafedrası);

Boshqa kataklarda tegishli: bajaruvchi, rahbar, bosh rahbar, maslahatchi va boshqa shaxslarning familiyasi, ismi, sharifi, imzosi va bajarilish muddati belgilanadi.

← 17 →		← 23 →		← 15 →		← 10 →		← 70 →		← 30 →		← 20 →		5	
						1								15	
Bajardi	F.I.Sh.	Imzo	Sana			2		Bosqich		4				5	
Rahbar								Chizma qog'oz		5					5
Bosh rahbar								Chizmalar		6					5
Maslahatchi						3		Masshtab		7				5	
Maslahatchi								8							10
Maslahatchi															

Chizma qog'ozning hoshiya chizig'i

5-rasm. BMI chizmalarida ko'rsatiladigan asosiy yozuvlar

Chizmalarni bajarishda GOST 21.108-78 bilan amalga kiritilgan shartli belgilardan foydalanish kerak. "Bekat rejalari uchun shartli belgilar" haqidagi ma'lumotlar A.M. Козлов va K.Г. Гусева taxrirligida chop etilgan "Проектирование железнодорожных станций и узлов" [7] ma'lumotnoma va uslubiy qo'llanma kitobida keltirilgan. Ushbu qo'llanmadan talabalar ehtiyojlariga loyiq ko'chirmalar 1-ilovada keltirilgan.

Bekat rejasidagi shartli belgilar

Shartli belgi nomi	Shartli belgi	Shartli belgi nomi	Shartli belgi
Bosh yo'l		Ko'mir tushirish uchun baland yo'l	
Bekat yo'llari		Qum quritgich va qum ombori	
Loyihalanayotgan yo'l		Handaqli nazorat yo'lasi	
Buziladigan yo'l		Temirbeton va g'ishtli devor	
Elektrlashtirilgan yo'l		Taxta (yog'och) devor	
Elektrlashtiriladigan yo'l		Ajratma maydon chegarasi	
Tirgakli berk yo'l		Yo'lovchi binosi va platforma	
Bashmak tushirgich		Yo'lovchi platformasi (qum, tuproqli)	
Oddiy, bir tomonli strelkali o'tkazgich		Yo'lovchi platformasi (temirbeton va asfaltlangan)	
Simmetrik strelkali o'tkazgich		Asfaltlangan avtomobil yo'li	
Chorrahasimon o'tkazgich		Toshli avtomobil yo'li	
To'mtoq kesishma		Quvur va kichik ko'priq	
Saralash tepaligi		Temirbeton va tosh ko'priq	
Gabarit darvozasi		Yo'l o'tkazgich ko'priq (ostin-ustun ko'priqli kesishuv)	
Vagon tarozisi		Kilometr ko'rsatkich belgi	
Temirbeton va g'ishtli yopiq yuk ombori		Nishablik ko'rsatkich belgi	
Usti yopiq yuk platformasi		Muhofaza qilinmaydigan temir yo'ldan o'tish joyi	
To'kma yuk maydonchasi		Avtomobil yo'li osti temir yo'l ko'prigi	

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ГОСТ 21.108-78 СПДС. Условные графические изображения и обозначения на чертежах генеральных планов и транспорта.
2. ГОСТ – Государственные стандарты правил оформления проектной документации для строительства, по состоянию на 01.01.85 г.
3. ГОСТ 21.103-78 СПДС. Основные надписи. Введен 01.07.79.
4. Железнодорожные станции и узлы. Учебное пособие. Н.В. Правдин, В.Т. Шубко. Издательство «Маршрут». М. 2005
5. Oraliq stansiyanı qayta qurish. Uslubiy ko‘rsatma. ToshTYMI. 2011.
6. Применение государственных стандартов в проектах железнодорожных станций и узлов. Методические указания к курсовому и дипломному проектированию. ЛИИЖТ. Л. 1986.
7. Проектирование железнодорожных станций и узлов. Справочное и методическое руководство. Под ред. А.М. Козлова, К.Г. Гусевой. М. Транспорт, 1981 – 592 стр.
8. Строительные нормы и правила (QMQ – Qurilish Meyorlari va qoidalari) СНиП II-39-76. Госстрой, 1976 г.
9. Требования системы проектной документации для строительства и единой системы конструкторской документации к разработке курсовых и дипломных проектов по железнодорожным станциям и узлам (учебно-методическое пособие). БелИИЖТ. Гомель. 1980.
10. Uzel uchastka stansiyanı loyihalash. Uslubiy ko‘rsatma. ToshTYMI. 2013
11. Yangi saralash stansiyanı loyihalash. Uslubiy ko‘rsatma. ToshTYMI. 2012.
12. www.ecsosman.edu.ru - Rossiya Federatsiyasi oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy komplekslar olishni ta’minlovchi ta’lim portali
13. www.ziynet.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali

Mundarija

Kirish.....	3
1. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi, vazifasi va bajarish tartib-qoidalari (OO‘MTVning 2010 yil 9 iyundagi 225 sonli buyrug‘i asosida).....	4
1.1. Bitiruv malakaviy ishni bajarish maqsadi va vazifalari.....	4
1.2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish va nazorat qilish tartib-qoidalari.....	4
2. Bitiruv malakaviy ishining mavzusini tanlash uchun tavsiyalar.....	5
3. Bitiruv malakaviy ishining mundarijasini tuzish va bo‘limlarini yoritish.....	13
3.1. “Saralash bekatining loyihasi” mavzusida BMI mundarijasi	13
3.2. “Uchastka bekati loyihasi” mavzusida BMI mundarijasi	14
3.3. “Saralash bekatini qayta qurish loyihasi” mavzusida BMI mundarijasi	15
4. Tushuntirish xatini rasmiylashtirish tartib-qoidalari.....	18
4.1. Umumiy qoidalar.....	18
4.2. Tushuntirish xatining tarkibi	19
4.3. Tushuntirish xatining matnini rasmiylashtirish	21
4.4. Rasmlar va ilovalarni rasmiylashtirish	23
4.5. Jadvallarni tuzish.....	23
4.6. Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.....	24
5. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda davlat standartlari talablariga amal qilish	24
5.1. Chizmalarni rasmiylashtirish.....	24
5.2. Bekat yo‘l tarmoqlarining rejasi va bo‘ylama profilini chizish	26
5.3. Bekat yo‘l tarmoqlari yer polotnosining ko‘ndalang kesimlarini chizish.....	28
5.4. BMI chizmalarida asosiy yozuvlar va shartli belgilar	29
Foydalanilgan adabiyotlar	32

Bepul tarqatiladi	Muharrir:	Z.K. Yunusova
Nashrga ruhsat etildi 27.05.2014	Hajmi	2,2 b. t.
Qog'oz bichimi 60×84/16	Adadi	20 nusxa
ToshTYMI bosmaxonasi	Buyurtma №	27-5/2014
	Toshkent sh., Odilxo'jayev ko'chasi, 1	